

## **TOSHKENT VILOYATI TUPROQLARINING IQLIM SHAROITLARI VA O'SIMLIK QOPLAMI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20506908>

**Iksanova Farida Rashidovna**

**Abduvoxidova Diyora Baxtiyor qizi,**

*Toshkent davlat agrar universiteti, talabalari*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Toshkent viloyati tuproqlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi iqlim omillari hamda o'simlik qoplaminig xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyat hududi keskin kontinental iqlim sharoiti bilan tavsiflanib, yozning issiq va quruq, qishning esa nisbatan yumshoq kechishi tuproq hosil bo'lish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hududda yog'in miqdorining notekis taqsimlanishi, havo harorati va namlik rejimi tuproqlarning fizik-kimyoviy xossalarini shakllantiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Tadqiqotda bo'z, o'tloqi va tog' oldi tuproqlarining tarqalishi hamda ularning tabiiy o'simlik qoplami bilan bog'liqligi yoritilgan. Viloyatning tekislik qismlarida efemer va efemeroid o'simliklar, tog' oldi va tog' zonalarida esa turli buta va o't o'simliklari keng tarqalganligi aniqlangan. Olingan natijalar tuproq unumdorligini baholash, yer resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### **Kalit so'zlar**

Toshkent viloyati, tuproq, iqlim sharoiti, bo'z tuproqlar, o'simlik qoplami, tuproq hosil bo'lishi, yog'in miqdori, harorat rejimi, efemer o'simliklar, tuproq unumdorligi, yer resurslari, ekologik barqarorlik.

### **Аннотация**

В данной статье рассмотрены климатические условия и особенности растительного покрова, оказывающие влияние на формирование почв Ташкентской области. Территория региона характеризуется резко континентальным климатом с жарким и сухим летом, а также относительно мягкой зимой, что существенно влияет на процессы почвообразования. Неравномерное распределение атмосферных осадков, температурный режим и условия увлажнения являются важнейшими факторами формирования физических и химических свойств почв. В работе проанализированы особенности распространения сероземов, луговых и предгорных почв, а также их взаимосвязь с естественной растительностью. Установлено, что на равнинных территориях преобладают эфемерные и эфемероидные растения,

тогда как в предгорных и горных районах широко распространены кустарниковые и травянистые сообщества. Полученные результаты имеют важное научное и практическое значение для оценки плодородия почв, рационального использования земельных ресурсов и обеспечения экологической устойчивости территории.


**Ключевые слова**

Ташкентская область, почва, климатические условия, сероземы, растительный покров, почвообразование, атмосферные осадки, температурный режим, эфемерные растения, плодородие почв, земельные ресурсы, экологическая устойчивость.

Toshkent viloyati hududning iqlim sharoiti o‘ziga xos bo‘lib, tekislik qismidan tog‘ mintaqalari tomon havoning harorati pasayib boradi, atmosfera yog‘in miqdorlari esa aksincha ko‘payadi. Toshkent viloyati tuproqlari granulometrik tarkibga ko‘ra o‘rta soz bo‘lib, lyoss fraksiyasi 50,2% gacha, qum fraksiyasining miqdori 10,8 %, fizikaviy loy 45,1 % ni tashkil etdi. Tuproq qatlamini asosan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar tashkil etadi.

Kunlar isishi o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi uchun eng zarur omillardan biri hisoblanadi. Har bir o‘simlik turi uchun minimal, optimal va maksimal harorat mavjud bo‘lgan holdagina o‘simliklar o‘sadi, rivojlanadi va ularda normal fiziologik jarayonlar amalga oshadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, harorat o‘simliklar hayotida, ularning geografik tarqalishida, tipining tashkil topishida muhim ekologik omil hisoblanadi.


Toshkent viloyatining iqlim sharoiti o‘ziga xos bo‘lib, tekislik qismidan tog‘ mintaqalari tomon havoning harorati pasayib boradi, atmosfera yog‘in miqdorlari esa aksincha ko‘payadi. Tekislik va adir mintaqalarida qish oylarining harorati turg‘unsizdir, ular fasllar va yillar bo‘yicha o‘zgarib turadi.



Bahor fasli mart oyidan may oxirigacha davom etib, havo harorati martda 9,2–15,2°C, aprelda 12,8–18,0°C va mayda 20,0–23,2°C gacha ko‘tariladi. Bahorning aprel-may oylarida yog‘ingarchilik miqdori yuqori bo‘lib, 122–125 mm ni tashkil etadi.

Yoz fasli iyundan sentyabr o‘rtalarigacha davom etadi va issiq hamda quruq ob-havo bilan xarakterlanadi.

O'rtacha harorat 29,1°C bo'lib, iyul oyida maksimal 37,4°C, minimal 20,4°C



kuzatiladi. Bu davrda yog'ingarchilik deyarli bo'lmaydi.

Kuz fasli sentyabr o'rtalaridan noyabrning ikkinchi dekadasigacha davom etadi. Sentyabr boshlarida havo iliq bo'lsa-da, oyning ikkinchi yarmidan boshlab harorat pasayadi. Oktyabr oyida yog'ingarchilik ortib, noyabrning II-III dekadalarida havo ancha soviydi.

Kuzatuv olib borilgan yillarda muayyan mavsum davomida havoning harorati deyarli bir xil bo'lib, yillar orasidagi farq juda kam bo'ladi. Yillik o'rtacha havo harorati 2015-yilda 15,2°C, 2016-yilda 15,4°C, 2017-yilda 15,2°C bo'lgan. Yillardagi o'rtacha maksimal havo haroratining farqlari ham shunga muvofiq 22,0°C, 22,2°C, 22,3°C ni tashkil etgan.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar asosan kontinental va quruq iqlim sharoitida shakllangan bo'lib, bu hududlarda tabiiy o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos ekologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Iqlimning keskin kontinental tabiati, yozning issiq va quruq, qishning esa nisbatan sovuq bo'lishi efemer va efemeroid o'simliklar jamoasining shakllanishiga sabab bo'lgan.

Tipik bo'z tuproqlar zonasida asosan efemer va efemeroid o'simliklar ustunlik qiladi. Efemerlarga erta bahorda qisqa muddat ichida tez rivojlanib, urug' berib qurib qoladigan o'simliklar kiradi. Masalan, rang-qo'ng'ir bosh, kovrak kabi turlar keng tarqalgan. Efemeroidlardan esa boychechak, chuchmoma, lolaqizg'aldoq, yovvoyi arpa kabi o'simliklar uchraydi.

Shuningdek, qurg'oqchilikka chidamli ko'p yillik o'simliklar ham muhim o'rin tutadi. Ularga oqquray, karrak, yaltirbosh kabi turlar kirib, ular tuproqning barqaror fitotsenozini shakllantirishda ishtirok etadi. Ye.P. Korovin (1962) ma'lumotlariga ko'ra, tog' oldi tekisliklarida efemer va efemeroid o'simliklar jamoalari juda yaxshi rivojlangan bo'lib, ularning faol vegetatsiya davri qisqa, ammo biologik mahsuldorligi nisbatan yuqori hisoblanadi.

Fitomassa zaxirasi o'rtacha 30-50 s/ga ni tashkil etadi, uning asosiy qismini (80-90%) o'simliklarning yer osti organlari tashkil qiladi. Har yili fitomassaning katta qismi nobud bo'lib, tuproqda organik moddalarning yangilanishi va gumus

hosil bo'lishi uchun asosiy manba vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, mikroorganizmlar faolligi yuqori bo'lgani uchun organik moddalarning jadal mineralizatsiyasi kuzatiladi.

Bugungi kunda tipik bo'z tuproqlar keng miqyosda sug'oriladigan dehqonchilik uchun o'zlashtirilgan. Hududning tabiiy sharoiti – atmosfera yog'inlarining kamligi, grunt suvlarining chuqur joylashganligi hamda namlik tanqisligi- asosan g'alla ekinlari, xususan bug'doy yetishtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, yerlarning intensiv o'zlashtirishi begona o'tlarning tarqalishini kuchaytirgan.

Eng xavfli begona o'tlar sifatida g'umay (*Sorghum halepense*), ajiriy (*Cynodon dactylon*), bug'doyiq (*Agropyron trichophorum*), salomalaykum (*Agropyron repens*), qo'yitikan (*Xanthium strumarium*) kabilar qayd etiladi.

Tipik bo'z tuproqlarda turli darajadagi hayvonot dunyosi vakillari yashaydi. Eng sodda organizmlar, tuproq mikrofaunasi, chuvalchanglar hamda umurtqalilar uchraydi. Ayniqsa, chuvalchanglar son jihatidan ko'p bo'lib, ular tuproqdagi organik qoldiqlarni parchalash orqali gumus hosil bo'lishi va modda almashinuvida muhim rol o'ynaydi.

Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar tarqalgan hududlari, ayniqsa Parkent, Ohangaron va tog' oldi tekisliklarida hayvonot dunyosi nisbatan boy va xilma-xildir. Umurtqasizlardan yer chuvalchanglari (*Lumbricina*), turli hasharotlar (chigirtkalar, qo'ng'izlar, chumolilar), o'rgimchaksimonlar (kanalar, o'rgimchaklar) ni tashkil etadi. Mayda umurtqalilarga kaltakesaklar (tez kaltakesak, yashil kaltakesak turlari), mayda ilonlar (qizil ilon, suv iloni turlari), kemiruvchilar (dala sichqoni, yumronqoziq, qum sichqoni) uchraydi.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar ekologik jihatdan o'ziga xos tizim bo'lib, unda o'simlik, hayvonot va mikroorganizmlar o'rtasida murakkab biologik bog'lanishlar shakllangan. Toshkent viloyati sharoitida bu tuproqlar intensiv dehqonchilik uchun muhim resurs hisoblanadi, biroq antropogen bosim natijasida begona o'tlar va ekologik muvozanatga ta'sir kuchayib bormoqda.

Ayni vaqtda tadqiq qilinayotgan region jadal o'zlashtirmoqda. Tabiiy sharoitning o'ziga xos xususiyati atmosfera yog'inlari kamligi, grunt suvlarining chuqurda joylashganligi va nihoyat namlikning tabiiy tanqisligi asosan bug'doy yetishtirishga moslashgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Махсудов Х.М.-Эродированные сероземы и пути повышения их продук-тивности. Ташкент, "Фан", 1981, стр. 105-126.
2. Махсудов Х.М. -Эрозия почв аридной зоны Узбекистана. Ташкент, 1989, стр. 31-67.
3. Раупова Н.Б., Абдуллаев С.А. Об особенностях свойств типичных и тёмных сероземов развитых на красноцветных "неогеновых" отложениях и их подверженности эрозии.

#### **Internet saytlari**

1. <http://www.bio.pu.ru>.
2. <https://hozir.org>
3. <http://www.doklad.ru>.
4. [www.mooesp.ru/opl.pdf](http://www.mooesp.ru/opl.pdf).
5. [www.nauka-shop.com/mod/shop/product/D2726/114k](http://www.nauka-shop.com/mod/shop/product/D2726/114k).